


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60320200– Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil «09» 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	<i>60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	<i>60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	<i>60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari	5
2.	<i>60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	9
2.3.1	Kvalifikatsiya	9
2.3.2.	<i>60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar	10
2.3.3.	<i>60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar</i> bakalavriat ta'lim dasturlarining tuzilishi	10
	Bibliografik ma'lumotlar	11
	Kelishuv varag'i	12

1. 60320200– Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, ommaviy axborot vositalari, axborot agentliklari, davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat organlari axborot xizmatlari, PR va reklama agentliklari, internet tarmog'i, jamiyatda tezkor axborot almashinuv va ishonchli axborot bilan ta'minlash kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 6030200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari:

- matbuot nashrlari va jurnalistik materiallar;
- radioeshittirish va teleko'rsatuvlar;
- axboriy, tahliliy va badiiy-publisistik janrlar;
- axborot agentliklari orqali tarqatiladigan yangiliklar;

- reklama agentligi mahsulotlari, ichki va tashqi reklama;
- internet jurnalistikasi materiallari, saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, gipermatnlar;
- davlat boshqaruvi organlari, vazirliklar, korxonalar va idoralarning matbuot markazlarining axborot materiallari, press-revizlar;
- jamoatchilik bilan aloqalar (PR) xizmatlari axborot materiallari;
- nashriyot-matbaa konsern va bosmaxonalarda chop etiladigan bosma mahsulotlar.

60320200 – *Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar* bo'yicha bakalavriyat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriyat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, qayta tayyorlov asosida umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida sohaga oid fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *davlat, nodavlat, moliya va tijorat tuzilmalarida jamoatchilik bilan aloqalar faoliyati;*
- *axborot xizmatlari, PR va reklama agentliklarida faoliyat;*
- *internet tizimida SMM, jurnalistik va bloggerlik faoliyati;*
- *noshirlik va muharrirlik faoliyati;*
- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *ma'naviy-ma'rifiy faoliyat;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
- *ishlab chiqarish, servis va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish faoliyati*

1.2.4. 60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60320200 – *Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Davlat, nodavlat, moliya va tijorat tuzilmalarida jamoatchilik bilan aloqalar faoliyati:

- davlat, nodavlat, moliya va tijorat tuzilmalarida jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faoliyatga oid huquqiy me'yorlarni bilish hamda amal qilish;
- axborot xizmati texnologiyalaridan foydalana olish;
- axborotni yig'ish, qayta ishlash, chop etish va tarqatish texnik-texnologiyalaridan foydalanish;
- zamonaviy reklama yaratish texnologiyalaridan foydalanish va reklama xizmatlari ko'rsatish;
- axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini amaliyotga tatbiq eta olish;
- muayyan sohaga tegishli (PR menejer, spichrayter, kopirayter, SMM, inqiroz bo'yicha mutaxassis) faoliyatlarda yetakchilik va boshqaruv ko'nikmalari ustuvorligini ta'minlash hamda rivojlantirishni amalga oshirish;
- yozma va audiovizual axborot vositalari orqali axborot xizmati vazifalarini bajarish va soha mutaxassisi qobiliyatlariga ega bo'lishi;

Axborot xizmatlari, PR va reklama agentliklari faoliyatda:

- faoliyat yoʻnalishi va vazifalaridan kelib chiqib, aholiga, OAVga, mijozlarga axborot xizmati koʻrsatish;
- tashkilotlarning axborot va matbuot xizmatlari ishini yoʻlga qoʻyish, jamoatchilik va OAV tahririyatlari bilan samarali munosabat oʻrnatish usullarini bilish;
- axborot xizmatlari faoliyatida turli amaliy tadbirlar, matbuot anjumanlari oʻtkazish, axborot xizmatlari faoliyatiga doir hujjatlarni tayyorlash;
- Tashkilotlar axborot siyosatini olib borish, PR kampaniya va aksiyalar oʻtkazish, jamoatchilik va OAV bilan samarali hamkorlik oʻrnatish boʻyicha zaruriy bilim va koʻnikmalarini egallash.

Internet tizimida SMM, jurnalistik va blogerlik faoliyatida:

- internet tarmogʻidan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy metodlari, usullari va vositalariga ega boʻlishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;
- global internet tarmoqlarida maʼlumotlarni tekshirish, ularni saralash va monitoring qilish;
- yangiliklar va axborot saytlari kontentini yaratish va toʻldirib borish;
- global tarmoqda rasmiy bloglar ochish va uning mazmunini boyitish;
- SMM faoliyatini olib borish va samarali boshqarish;
- veb-sahifalar uchun yangiliklar, tahliliy materiallar yozish, foto, video va audiomateriallar yaratish.

Noshirlik va muharrirlik faoliyatida:

- nashriyot va tahrir sohasida badiiy va ilmiy asarlar, sohaga oid risola va monografiyalar boʻyicha musahhah va muharrirlik faoliyatini amalga oshirish;
- ichki korporativ nashrlarni yoʻlga qoʻyish, ularga material joylash va tahrir qilish malakasiga ega boʻlish;
- arxiv va adabiyot muzeylarida ilmiy xodim sifatida ishlash va sohaga oid ish jarayonini tashkil qilish;
- teatrda ssenariylarni oʻqish, tahrir qilish va rejissyor hamda aktyorlarga badiiy asar mohiyatini tushuntirish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- milliy va xorijiy OAV hamda jamoatchilik bilan aloqalar tizimlari, assosiasiyalar faoliyatini tadqiq qilish, ular faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni jahon PR tuzilmalari sifat va standart mezonlariga qiyoslagan holda milliy media va axborot xizmatlari faoliyati uchun samarali boʻlgan jihatlarni koʻrsatib bera olish;
- internet tarmogʻida eng yangi ilmiy, jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatiga oid yutuqlar haqidagi informatsiyani maqsadga yoʻnalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik Profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, jurnalistika, reklama va jamoatchilik bilan aloqalar boʻyicha adabiyotlar ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- maʼlumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu boʻyicha ilmiy maʼlumotlarni tizimli tahlil qilish;
- oʻtkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi boʻyicha modellar, metodlar, tahliliy obʼyekt va predmetni oʻrganish, mavzu muammosini tadqiq qilish va ilmiy yechimlarini ishlab chiqish;

- ilmiy nazariy qarashlari va OAV amaliy faoliyati bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;
- ilmiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy hisobotlar, loyihalashtirish ishlarini tayyorlash, mustaqil ishlar va bibliografiyalar tuzish;
- ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish va ilmiy jurnallarga maqolalar tayyorlash;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;
- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash, auditoriya ongiga milliy g'oya va axloq mezonlarini singdirish;
- o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;
- globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda milliy til va adabiyotning o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
- mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;
- milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ochib berish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- OAV va jamoatchilik bilan aloqalar, uning qonun asosida amalga oshiriladigan faoliyatini yo'lga qo'yish;
- PR strategik rejalarni ishlab chiqish, va amaliyotga tatbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xodimlar ijodiy jamoasi, faoliyat vositalari va resurslarini rejalashtirish;
- axborot texnologiyalari tizimini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- PR tadbirlarini tashkil etish, samarasini monitoring qilish jarayonlarini nazorat qilish;
- maqsadli auditoriya bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish ishlarini tashkil etish va boshqarish;
- jamoatchilik fikrini muntazam o'rganish va unga ta'sir etish tendensiyalarini sarhisob qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri va sog'lom qaror qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash.

Ishlab chiqarish va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyatda:

- ilmiy va amaliy yo'nalishda jurnalistik va jamoatchilik bilan aloqalar faoliyat mahorati va ko'nikmalarini rivojlantirib borish va ulardan foydalanish;
- faoliyatga aloqador milliy va xalqaro kasbiy etika kodeksiga rioya qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini ta'min etuvchi boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarida atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligini ta'minlash;
- yo'nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;
- soha bo'yicha tegishli servis xizmati ko'rsata olishi, jamoatchilik bilan aloqalar sohasida maslahatchilik, tarjimonlik, axborot to'play olish yo'llari, uslublarini qo'llay olishi va tashkiliy ishlarni bajara olish;
- ixtisoslikka mos sohalar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

2. 60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri hulosa chiqarish, pragmatik madaniyatni shakllantirish
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlash;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanish;
- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy g'oya va axloqiy mezonlarga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilish;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi.
- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish.
- yangi tashkilotlarni yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish.
- axborot xizmatlari amaliyotida axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlariga ega bo'lish;
- sohaga oid ilmiy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha axborot va ilmiy modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish;
- axborotni qabul qilish uni qayta ishlab, dolzarb muammoli axborotni taxlil qilib xulosalar chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni uningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. Kvalifikatsiya: Jamoatchilik bilan aloqalar mutaxassisi, PR -menejer.

2.3.2. 60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar.

O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4800	160
Tanlov fanlar	1800	60
Malakaviy amaliyot	480	16
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. 60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha o’quv rejasining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o’tiladigan semestr
1		Majburiy fanlar	4800	160	
1.01.	OEYT1104	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02.	OZRT1104	O’zbek (rus) tili	120	4	1
1.03.	FALS1204	Falsafa	120	4	2
1.04.	DINS1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.05.	SIYO1604	Siyosatshunoslik	120	4	6
1.06.	KAVT1116	Media kommunikatsiya asoslari va tarixi	480	16	1,2
1.07.	JBAN1124	PR nazariyasi va amaliyoti	900	30	2,3,4,5,7,8
1.08.	JMFC1304	Jurnalistikada mediasavodxonlik va fakt checking	120	4	3
1.09.	MHME1504	Media huquqi. Media etikasi	120	4	5
1.10.	MULF1116	Multimediaviy formatlar	480	16	1,5,6,8
1.11.	CHET1136	Chet tili (sohaga yo’naltirilgan chet tili)	1080	36	1,2,3,4,5,6
1.12.	MEVA1224	Medialingvistika va adabiyot	720	24	2,3,4,5,6,7
1.13.	MPMS1704	Media psixologiyasi. Media sotsiologiyasi	120	4	7
1.14.	MEVM1706	Mediamarketing va mediamenejment	180	6	7
2.		Tanlov fanlari	1800	60	3,4,5,6,7,8
		JAMI	6 600	220	
		Malakaviy amaliyot	480	16	2,4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	
		JAMI	600	20	
		Hammasi	7200	240	

Tayanch so'zlar:

Marketing, axborot-kommunikatsion boshqaruv, analiz, anketa, argument, afisha, banal, brifing, bingo-karta, bloggerlik, blis-intervyu, videorolik, videopleyer, geosiyosat, OAV globallashuvi, grafomaniya, dalillash, dezoriyentatsiya, demagogiya, demoskopiya, bestseller, hududiy matbuot, bulvar jurnalizmi, virtual dunyo, ommaviy kommunikatsiya, onlayn jurnalistika, pablik-rileyshnz, axborot globallashuvi, dezinformatsiya, jadidlar matbuoti, janr, radio jingl, jurnalist surishtiruvi, jurnalistikada deontologiya, jurnalistikada avtoritarizm, jurnalistik jingoizm, imijmeyker, interaktiv jurnalistika, intervyu-dialog, kompozisiya, kommunikatsiya modellari, kompromiss, konvergensiya, konsensus, kontent-tahlil, kreativ, marketing kommunikatsiyasi, mass-media, media-biznes, mediata'lim, matbuot konferensiyasi, media-matn, montaj, personal jurnalistika, plyuralizm, postindustrial jamiyat, psixologik urush, press-reliz, reyter, reklama texnologiyalari, press-reliz, press-kit, reportaj, spichrayter, stringer jurnalistika, tijoriylashuv, faktologik janrlar, frilans, xronika, sharhlovchilik, epitajli intervyu, ekójurnalistika.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Rektor Sh. Qudratxo'ja

“ ” 2023-yil



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan
va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi direktori

Sh.U. Yakubov

“ ” 2023-yil

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi direktori

A.A. Xodjayev

“ ” 2023-yil

M.O'.




O'zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi
direktori

A.A. Abutalipov

“ ” 2023-yil

M.O'.




Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti rektori

I.U. Majidov

“ ” 2023-yil

M.O'.



O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti rektori v.v.b.

B.G. Kulmatov

“ ” 2023-yil

M.O'.




Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti rektori

G.Sh. Rixsiyeva

“ ” 2023-yil

M.O'.



O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
60320200- Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari
va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“12” *iyul* 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori A.A. Xodjaye, O‘zbekiston milliy media assotsiatsiyasi direktori A.A. Abutalipov, O‘zbekiston milliy universiteti rektori prof. I.U. Majidov, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori v.v.b B.G. Qulmatov, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori G.Sh. Rixsiyeva, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori prof. Sh.T. Qudratxo‘ja birgalikda O‘zJOKUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60320200- Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta’lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019/2020-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi direktori

A.A. Xodjaye
A.A. Xodjaye

O‘zbekiston milliy media assotsiatsiyasi direktori

A.A. Abutalipov
A.A. Abutalipov

O‘zbekiston milliy universiteti rektori professor

I.U. Majidov
I.U. Majidov

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori v.v.b.

B.G. Qulmatov
B.G. Qulmatov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori

G. Rixsiyeva
G. Rixsiyeva

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti rektori

Sh. Qudratxo‘ja
Sh. Qudratxo‘ja